

TIL O'RGANISHDAGI SAMARALI USULLAR

Ismandiyarova Oydin Abdimo'minovna

Ohangaron Shahar 9-umumiy o'rta ta'lif maktabining

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

+99894 629 39 00

Annotatsiya: Ushbu maqolada barcha tillarni o'rganish uchun qo'1 keladigan ko'p foydali metodlar xususida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: Imagination, qiziqarli o'yinlar repetition, location, taqdimot, audio, point, videolar

Ma'lumotlarga ko'ra O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elatlar ahil yashab kelmoqda. Bundan ko'rindiki, xorij tillarini o'rganish katta ahamiyatga egadir. Ayniqsa, mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, chet tillarini o'rganishga katta e'tibor qaratdi. Ko'plab imkoniyatlar yaratildi. Bunga nisbatan yoshlarni qiziqishi ham ortdi.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatishni ommalashitirishni yangi bosqichga olib chiqish, rivojlantirish, buning uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'grisida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashitirish agentligining (keyingi o'rnlarda – Agentlik) "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni bilan Xalq ta'limi vazirligiga ko'maklashish jamg'armasi uchun ajratiladigan mablag'lar hisobidan agentlikning budjetdan tashqari jamg'armasiga keyingi o'rnlarda jamg'arma bir martalik 15,0 mlrd so'm miqdoridagi moliyaviy ko'mak mablag'larini ajratish to'g'risidagi taklifga rozilik berilsin.

Ayniqsa, dunyo bo'yicha samarali natija bergan o'qitish metodikalari dastur va darsliklarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari va o'quv markazlarida joriy etish.

Mamlakatimiz rahbari til o'rganish uchun katta e'tiborlarini qaratmoqda. So'nggi paytlarda nafaqat yoshlar balki juda ko'pchilik mamlakatimiz aholisi til o'rganishga kirishdi. Ayniqsa, ingliz va xitoy tillarini. Sababi dunyo alohisining ko'pchilik qismi ingliz tilida suhbatlashganliklari tufayli ikkinchi jahon tili sifatida qaraladigan bu tilga talab katta. Bu tilni chuqur o'rganish ahamiyatga ega. Xitoy tilini o'rganish ham juda muhim. Ayniqsa, mamlakatimizda xitoyliklarni ko'p uchratish mumkinligi tufayli ular bilan o'z tillari orqali suhbatlashish xitoyliklarni o'zbek xalqiga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi va xursand qiladi. Til o'rtadagi

rishtani mustahkam ushlab turuvchi vositadir. U oraqli O‘zbekistonni rivojiga ulkan hissa qo‘sish mumkin. Aynan o‘zga davlatlar bilan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy aloqalar uchun ham tilni o‘rganish muhim.

Til o‘rganish deyarli barcha yoshdagilar uchun qiyindek tuyiladi. To‘g‘ri, til o‘rganish qiyin, ammo oson usullardan foydalanilsachi? Ko‘rish orqali eslab qolish, eshitish orqali eslab qolish, lug‘atlarni qayta-qayta takrorlash orqali yaxshi natijaga ershish murakkab ish va bu ko‘p vaqt talab qiladi. Yaxshi natijaga qisqa vaqtida, oson usullar oraqli erishish uchun tan olingan va hayoti davomida aynan ushbu usullardan foydalanib katta zafarlar quchgan mnemonislarning uslubidan foydalanilsa, albatta, qiyin bo‘lgan tillarni ham oz vaqtida o‘rganish juda oson bo‘ladi.

1. Ertalab, soat 04:00 lugatlar va maxsus matnlar yodlashning samarali vaqt. Aslini olganda, bu usulni har qanday vaqtida qo‘llasa bo‘ladi. Avval, xayolni bir joyga jamlash ya’ni point usulidan foydalaniladi. Ushbu usulda 2 minut ko‘zlarini bitta joydan uzmaslik kerak. Ana shu vaqt mobaynida xayolni bir xil holatda uchlash zarur. Agar xayol boshqa tomonga yo‘nalib ketsa, uni yana darhol o‘z holatiga qaytariladi. Bu usul orqali o‘rganmoqchi bo‘lgan narsangizga bor etiboringizni jalgan eta olasiz.

2. Imagination. Bu usulda yodlanadigan lug‘atni o‘z tiliga moslashtirib ya’ni o‘xshatsa, yangi so‘zlar tez esda qoladi. Masalan, A. condition ingliz tilidan tarjima qilinganda holat degan ma’noni beradi. Condition so‘zini qon idishiga o‘xshatilsa, mana bunday tasavvur qilinsa: ko‘zlarimni yumsam, qaroqchilar qon idishini qo‘llarida ko‘targan holati namoyon bo‘ladi. Qo‘rqinchli, o‘sha qorong‘u joyda qon idishi ko‘targan qaroqchilarini tasavvur qilish kerak. B. Neck inglizcha bo‘yin degani. Neck so‘zini neksiya avtomobiliga o‘xshatilsa, tasavvur qilinsa, bo‘ynimda neksiya yurgandi. Aynan shu kabi tasavvurlar orqali uzoq vaqtgacha xohlagan tildagi lugatlarni eslab qolish mumkin.

3. Location. Ushbu usulda yodlanadigan lugatlarni uydagi, ko‘chadagi va boshqa xohlagan barcha ajoyib manzaralardagi narsalarga joylashtirib chiqiladi. Masalan, maymun va kompyuter so‘zlari. Ishxonaga borsam administrator maymun meni ismimni kompyuterga yozib belgilab qo‘ydi. Bu yerda yuqoridagi usul bilan birgalikda ya’ni ham moslashtirib, ham tasavvur qilish kerak. Odatda, inson xotirasida har qanday narsa qo‘rqinchli yoki juda kulgili bo‘lsa esida qolish foizi katta bo‘ladi.

4. Repetition. Lug‘atlarni takrorlash usuli. Barcha tasavvur qilgan lugatlarni mukammal tarzda takrorlaniladi.

Ushbu usullar juda qiziqarli usullardir. Bulardan foydalanish mobaynida turli xil vaqtni taqsimlovchi ilovalardan foydaloydalanilsa, vaqt tejaladi. Natijada esa dars unumdoorligi oshadi.

Bu usullardan tashqari sinalgan yana bir nechta usullar bor. Bu usullar orqali yod olgan har qanday narsani yaxshigina mustahkamlab olish mumkin. Masalan, qiziqarli rasmlardan, ko‘rinishlardan foydalanib taqdimotlar tayyorlash. Bu usul bilan

o‘zgalarga tushuntirish berish ham o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Taqdimotda ko‘p sahifalardan kam yoki kam sahifalar orqali ko‘p malumotlar berishi mumkin. Sahifalarga audiolar qo‘silsa boshqa o‘rganuvchilarni ham o‘sha tilga nisbatan qizishini orttiradi. Muhim ma’lumotlar har xil ranglarda ifodalansa ko‘z xotirasi o‘z vazifasini bajara boshlaydi.

Qiziqarli videolar yasash va ko‘rish usuli. O‘rganilayotgan tilda suhbatlashuvchilarni bloglarini kuzatish, o‘sha tildagi turli xil foydali videolar, kinolar ko‘rish, audiolar eshitish orqali o‘sha tilga nisbatan qiziqishni orttirish mumkin. O‘sha tilga oid video yasash ham u tilga bo‘lgan munosabatni yaxshilaydi.

Yozish orqali o‘rganish. To‘g‘ri, bu usul biroz zerikarli. Biroq, bu usul rangli ruchkalar, qalamlar bilan, har xil shakldagi tushuncha yozishga mo‘ljallangan varoqchalarga yozib, esda qolishi uchun ko‘p ko‘riladigan joyga yopishtirish orqali qiziqarli usulga aylanadi.

Qiziqarli o‘yinlar orqali o‘rganish. Turli o‘yinlar bilan qiziqarli tarda o‘rganish juda foydali usullardan biri. Ayniqsa, miyyani tez harakat qilishga undovchi o‘yinlar xotirani mustahkamlaydi, mukammallashtiradi. Masalan, “Issiq kartoshka” o‘yini. Bu o‘yinda qo‘lda koptok yoki ushslash uchun qulay bo‘lgan narsa olinadi va so‘z aytildi. So‘z oxiridagi harf qaysi harf bilan tugasa keyingi ishtirokchi o‘sha harfdan boshlanuvchi so‘z aytishi kerak. So‘zlar takrorlanmasligi zarur. Davomiyligi ya’ni so‘z o‘ylash uchun kamida 8 soniya vaqt beriladi, ishtirokchi o‘sha vaqt mobaynida topa olmasa o‘yindan chetlashtiriladi.

Xato bo‘lishidan qo‘rmaslik kerak. O‘sha tilda suhbatlashuvchilar bilan iloj boricha suhbatlashish zarur. Zeroki inson xatolar tufayli rivojlanadi, o‘rganadi.

Har qanday tilni o‘rganish oson. Til o‘rganish juda katta imkoniyatlar yaratib beradi. Alisher Navoiy ta’kidlaganidek, “Tilga ixtiyorsiz - elga e’tiborsiz”. Rostan ham insonni tilga bo‘lgan munosabati ijobiy bo‘lishi kerak. Misol uchun, Prezidentimizning 2021-yil, 19-maydagi O‘zbekiston Respublikasida Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risidagi qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligi tashkil etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rahmatov O‘tkir Rahmatovich Xalq so‘zi 2020 09.10. n1191
2. Kun.uz 2021.19.05